



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 25 yil " 28-"mart

№ 82

Toshkent sh.

Sog'liqni saqlash vazirining "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Doimiy faoliyatdagi Hay'atlari faoliyatini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida" 2025-yil 31-yanvardagi 32-sonli buyrug'iga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

Alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni tibbiyot amaliyotida qo'llash va ularning muomalasini tartibga solish maqsadida **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 632-son qarori va "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash, realizatsiya qilish, berish, taqsimlash va hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2024-yil 25-dekabrda 36-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3604, 2025-yil 27-yanvar) ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sog'liqni saqlash vazirining "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Doimiy faoliyatdagi Hay'atlari faoliyatini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida" 2025-yil 31-yanvardagi 32-sonli buyrug'iga ilova muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

3. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari v.b. D.Sultanov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



A. Xudayarov

Sog'liqni saqlash vazirining
2024-yil 28-martdagi
92-son buyrug'iga
ilova

Sog'liqni saqlash vazirining "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Doimiy faoliyatdagi Hay'atlari faoliyatini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida" 2025-yil 31-yanvardagi 32-sonli buyrug'iga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

1. Buyruqning 2-ilovasi **27- bandi** quyidagi taxrirlarga bayon qilinsin:

"27. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar va prekursorlarni muomalasi bilan bog'liq faoliyat quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar va prekursorlarni saqlashga doir texnik talablarga muvofiqligi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi "Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida" 86-son Qarorining 42-ilovasi "Obyektlar (xonalar)ning giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni, ularning analoglarini va prekursorlarni saqlashga doir texnik talablarga muvofiqligi to'g'risida xulosa pasporti;

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash, berish, sotish, taqsimlash va hisobga olish Sog'liqni saqlash vazirining "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash, realizatsiya qilish, berish, taqsimlash va hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2024-yil 25-dekabrda 36-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3604, 2025-yil 27-yanvar);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 632-son qarori;

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to'g'risida" 472-son qarorining 1-ilovasidagi "O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari psixotrop moddalar va prekursorlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomiga ko'ra har bir davolash-profilaktika muassasalarining Hududiy hay'at a'zolari tarkibiy tuzilma boshliqlari ishtirokida muassasaning giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar va prekursorlarga yillik ehtiyojini shakllantiriladi.

Mazkur ehtiyoj tuman/shahar tibbiyot birlashmasi Hududiy hay'at raisi tomonidan jamlab tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni

saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalariga taqdim etiladi va o‘z navbatida ular tomonidan “Farmatsevtik mahsulotlar xavfsizligi markazi” davlat muassasasining Narkotiklarni nazorat qilish qo‘mitasiga keyingi yil uchun joriy yilning 1-iyun oyiga qadar taqdim qilinadi va Sog‘liqni saqlash vaziri tomonidan tasdiqlanadi.”.

2. Buyruqning 2-ilovasi quyidagi taxrirla bayon qilinsin:

**“O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi qoshidagi
Doimiy Faoliyatdagi Hay‘at tarkibi**

RAYOSAT		
1	Sultanov D.T.	Vazirning birinchi o‘rinbosari v.b. — rais
2	Tashpulatov F.M.	Vazir o‘rinbosari — rais o‘rinbosari
3	Xolmatov E.R.	O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash departamenti Ijtimoiy sohada korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i
4	Giysova M.S.	SSVning “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” mutaxassisi kotib (a)
A‘ZOLAR		
5	Gaziyeva U.A.	Tibbiy yordamini tashkillashtirish Departamenti boshlig‘i v.b
6	Anvarova L.U.	Onalik va bolalikni muhofaza qilish bosh boshqarmasi boshlig‘i
7	Safarov O.	SSVning Iqtisodiyot va moliyalashtirish boshqarmasi boshlig‘i
8	Temirov A.S	SSVning “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” direktori
9	Qodirov M. M..	Dori vositalarining ehtiyojini aniqlash bo‘limi boshlig‘i v.b
10	Ibragimov N.K.	SSVning bosh anesteziolog-reanimatologi
11	Fozilov X.G‘.	SSVning bosh kardiologi
12	Abdullayeva L.M.	SSVning bosh akusher-ginekologi
13	Parpiyeva N.N.	SSVning bosh ftiziatr
14	Liverko I.V.	SSVning bosh pulmonologi
15	Rajabov X.S.	Pulmonologiya xizmati bo‘yicha konsultant
16	Karimov M.M.	SSVning bosh gastroenterologi
17	Maxamadaliyeva G.Z.	SSVning bosh gematologi
18	Polatova D Sh.	SSVning Bolalar gematologiyasi va onkologiyasi xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
19	Ismailov S.I.	Xirurgiya xizmati bo‘yicha bosh mutaxassis
20	Akbarov M.M.	Umumiy xirurgiya xizmati bo‘yicha konsultant
21	Abdusamatov B.Z.	Bolalar xirurgiya xizmati bosh mutaxassis
22	Xolmatova K.Sh.	SSVning bosh infeksiyoti
23	Mirzayev U.X.	Yuqumli kasalliklar xizmati bo‘yicha konsultant
24	Xudayqulova G.K.	SSVning bolalar bosh infeksiyoti
25	Tillashayxov M.N.	SSVning bosh onkologi
26	Kamishov S.V.	SSVning ximioterapiya xizmati bo‘yicha konsultant
27	Islamov X.J.	SSVning bosh onkologi konsultant
28	Miraxmedova X.T.	Revmatologiya xizmati bo‘yicha konsultant

29	Tulyaganov D.B.	Shoshilinch tibbiy yordam xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
30	Muxamedova B.F.	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy Markazi bosh shifokori
31	Aliqulov I.T.	Terapiya xizmati bo'yicha konsultant
32	Ahmedova D.I.	SSVning bosh pediatri
33	Asadullayev U.M.	SSVning neyroxirurgiya bo'yicha bosh mutaxassisi
34	Nosirova U.F.	SSVning bosh neanotologi
35	Raziqova I.S.	SSVning bosh allergologi
36	Muxtarov Sh.T.	SSVning bosh urologi
37	Faxrutdinova S.S.	SSVning bosh Endokrinologi
38	Sultanova Sh.T.	SSVning bolalarr endokrinologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassisi
39	Ashurov Z.Sh.	SSVning bosh psixiatri
40	Chimbayev B.R.	Psixiatriya xizmati bo'yicha konsultant
41	Majidova Yo.N.	SSVning bosh nevropatologi
42	Saidazizova Sh.X.	Bolalar nevrologiya xizmati bo'yicha konsultant
43	Irismetov M.E.	SSVning travmatologiya va ortopediya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
44	Valiyev E.Yu.	SSVning travmatologiya va ortopediya bo'yicha konsultant
45	Ergashev U.M.	SSVning bosh otolaringologi
46	Sabirova F.B.	Bolalar revmatologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassisi
47	Shamsiyev F.M.	Bolalar pulmonologiya xizmati bo'yicha konsultant
48	Yusupov A.F.	Oftalmologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
49	Aripov A.N.	Laboratoriya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
50	Saidov A.B.	Transfuziologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
51	Chuprova V.A.	SSVning transfuziologiya xizmati bo'yicha konsultant
52	Sultanov P.K.	SSVning bosh transplantologi
53	Axmedov A.R.	Buyrak transplantologiyasi bo'yicha konsultant
54	Gaffarov S. A.	SSVning Stomatologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
55	Inoyatov A.Sh..	Dermatovenerologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
56	Sabirov M.A.	SSVning Nefrologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
57	Akalayev R.N..	Bolalar nefrologiyasi va gemodializ xizmati bo'yicha konsultant
58	Xoliqov A.Yu.	SSVning gemodializ xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
59	Azizov S.Q.	Gemodializ xizmati bo'yicha konsultant
60	Salixodjayeva R.K.	Hamshiralik ishi bo'yicha bosh mutaxassis
61	Mavlyanova D.A.	Umumiy amaliyot shifokorligi bo'yicha konsultant
62	Atabekov N.S.	SSVning bosh epidemiologi
63	Tursunova D.A.	Immunoprofilaktika xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
64	Tyo I.L.	SSVning bosh parazitologi
65	Djurayev A.	SSV yuridik bo'lim boshlig'i

Izoh:

1. Mazkur ro'yxat bilan tasdiqlangan hay'at tarkibidagi shaxslar boshqa ishga o'tgat taqdirda, uning o'rniga tayinlangan shaxs xay'at a'zosi hisoblanadi.
2. Zarurat tug'ilganda hay'at tarkibiga kerakli mutaxassislar jalb qilinadi."